



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024-YIL YANVAR-SENTABR OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 72 221-51-13
www.jizzax.stat.uz

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 2 451 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 661 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,0 % ni) Jizzax shahriga, 375 tasi (15,3 %) Sharof Rashidov tumaniga, 270 tasi (11,0 %) G'allaorol tumaniga, va 246 tasi (10,0 %) Zomin tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2024-yil 1-oktabr holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, %da
Jami:	2451	809	100,0
Jizzax shahar tumanlar:	661	179	27,0
Arnasoy tumani	76	27	3,1
Baxmal tumani	140	83	5,7
G'allaorol tumani	270	99	11,0
Sharof Rashidov tumani	375	92	15,3
Do'stlik tumani	100	40	4,1
Zomin tumani	246	103	10,0
Zarbdor tumani	134	51	5,5
Zafarobod tumani	67	25	2,7
Mirzacho'l tumani	78	27	3,2
Paxtakor tumani	129	34	5,3
Forish tumani	127	37	5,2
Yangiobod tumani	48	12	1,9



Jizzax viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 18 721,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,0% ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko'rsatkichlari o'sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o'sayotganligini ko'rsatadi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jizzax viloyatida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 12 325,9 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.






Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **18 199,5** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **107,9 %** ni, tashkil etdi.


Hajmi, mlrd. so'm



FHI, %da



Ulushi, %da



B

C

D

E

B

C

D

E

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

B seksiya

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **140,6 mlrd. soʻmni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,7 %** ini tashkil etdi.



Yanvar-sentabr

2022-y 138,8 mlrd. soʻm

2023-y 206,4 mlrd. soʻm

2024-y 140,6 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y 28,0%

2023-y 138,3%

2024-y 61,4%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **18 199,5 mlrd. soʻmni** yoki jami sanoat mahsulotlarining **97,2 %** ini tashkil etdi.

Yanvar-sentabr

2022-y. 7 416,5 mlrd. soʻm

2023-y. 13 832,5 mlrd. soʻm

2024-y. 18 199,5 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y. 93,9 %

2023-y. 108,8 %

2024-y 107,9%






**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

Paxta tolasi			Yumshoq bug'doy va spelta uni			Paxta linti		
2024	→	95,5	2024	→	100,3	2024	→	102,4
2023	→	59,2	2023	→	26,6	2023	→	40,0
2022	→	82,6	2022	→	91,7	2022	→	121,0
Paxta chigiti			Trikotaj polotnolar			O'simlik yog'i (tozalangan)		
2024	→	95,7	2024	→	80,7	2024	→	213,2
2023	→	53,5	2023	→	145,1	2023	→	71,4
2022	→	95,1	2022	→	72,2	2022	→	2,3m
Yengil avtomobillar			Portlandsement			Paxtadan yigirilgan ip		
2024	→	113,9	2024	→	85,5	2024	→	97,1
2023	→	2,8 m	2023	→	134,7	2023	→	89,2
2022	→	2,2m	2022	→	115,2	2022	→	100,3

2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,1 ming tonna paxta tolasi (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 95,5 % ni tashkil etgan), 9,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (100,3 % ni), 10,6 ming tonna paxta chigiti (56,5 % ni) hamda 9,9 ming tonna o'simlik yog'i (tozalangan) (213,2 % ni tashkil etgan).




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (KIA,Chery,Haval,Lada) - dona	19 820	21 636	1 816,0
Paxta tolasi - tonna	16 401,0	13 058,0	-3 343,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni -tonna	11 005,6	9 668,7	-1 336,9
Paxta chigiti - tonna	24 988,0	19 965,0	-5 023,0

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi – 46,6 % (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishining ulushi – 18,1 % (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,4 %), Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – 11,2 % (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 10,6 % (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,5 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 55,4 % (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 53,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 12,6 % (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 15,7 %) va quyi texnologiyali – 28,9 % (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 27,3 %) ni tashkil etdi.



Metallurgiya sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 32,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,2 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 15,8 % ni tashkil etgan.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 117,4 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8% ni etib, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 147,1 % ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,2 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 95,0 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 2105,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 120,4 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,3 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 129,7 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 1 936,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,7 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,8 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 38,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 115,1 % ga o'sgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 115,9 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 790,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 95,7 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 %, fizik hajm indeksi 93,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 583,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 122,5 % ni tashkil etgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 69,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 407,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni fizik hajm indeksi esa 134,4 % ni tashkil etgan.



Mebel ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, mebel ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 93,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 177,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 116,3 % ni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 84,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 275,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni fizik hajm indeksi esa 102,0 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi 168,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 619,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni fizik hajm indeksi esa 128,8 ni tashkil etgan.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 99,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 66,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni fizik hajm indeksi esa 94,8 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 46,6 %, fizik hajm indeksi 113,4 % ga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 8717,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 47,6 % ni fizik hajm indeksi esa 107,3 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 292,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 119,2 mlrd. so‘mga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-sentabr	2024- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m	119 907,9	225 705,4	105 797,5
Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m	53 181,4	66 545,4	13 364,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 88,9 mlrd.so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,5 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil vanvar-sentabr	2024- yil vanvar-sentabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	48 642,9	62 100,1	13 457,2
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	11 070,6	26 773,1	15 702,5


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 17,3 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 90,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 173,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 16,9 %ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023-yil yanvar-sentabr



■ Xorijiy korxonalar
■ Boshqa korxonalar


2024-yil yanvar-sentabr



■ Xorijiy korxonalar
■ Boshqa korxonalar


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.soʻm)da

2023-yil yanvar-sentabr



Xorijiy korxonalar
Boshqa korxonalar



2024-yil yanvar-sentabr



Xorijiy korxonalar
Boshqa korxonalar

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 387,3 mlrd.soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,4 %ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi koʻpayotganligini bildiradi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 2024 yil yanvar-sentabr holatiga 83 ta loyiha bo'yicha 10 678,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 27,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

2023- yil	2024- yil
 Loyihalar soni, birlikda 90 ta	 Loyihalar soni, birlikda 83 ta
 Korxonalar soni, birlikda 54 ta	 Korxonalar soni, birlikda 51 ta
 Ishlab chiqarish hajmi 9 003,3 mlrd.so'm	 Ishlab chiqarish hajmi 10678,8 mlrd.so'm
 Yaratilgan yangi ish o'rinlari 1087 ta	 Yaratilgan yangi ish o'rinlari 1918 ta

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 1918 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 176,4 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 80,8 % ni tashkil etdi .